

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

**UMUMTA’LIM MAKTABLARINING 6-7 SINF ONA TILI DARSLARIDA
O’QUVCHILARNI MANTIQIY VA KREATIV FIKRLASHGA OID NUTQIY
KOMPETENTSIYALARINI LINGVOMETODIK RIVOJLANTIRISH
XUSUSIYATLARI**

*Gafurova Shoxsanam Abdunazarovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Pedagogika kafedrasи katta o‘qituvchisi
shoxsanamgafurova1971@gmail.com*

Annotatsiya Ona tili o‘qitish metodik jihatdan kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg‘uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomillashishiga olib kelish ko‘zda tutilmoqda. Umumta’lim mакtablarida ona tilini o‘qitishda metodik kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etishning, lingvovidaktik hamda lingvometodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: o‘qitish, lingvometodika, nutqiy kompetensiya, rivojlantirish muammolari, umumta’lim mакtablari, sinflar kesimi, ta’lim jarayoni, grammatik tahlil ishlari, tizim.

Аннотация Обучение родному языку методически основано на компетентностном подходе, развитие языковых компетенций в ходе урока должно привести к совершенствованию речевых компетенций. Это требует разработки дидактической системы и технологической модели развития методической компетентности при преподавании родного языка в общеобразовательных школах и совершенствования лингводидактических и лингвометодических условий для их реализации.

Ключевые слова: обучение, лингвометодика, речевая компетентность, проблемы развития, общеобразовательные школы, срез классов, учебный процесс, грамматический анализ, система.

Annotation Teaching the mother tongue is methodologically based on the competence approach, the development of linguistic competences during the lesson is expected to lead to the improvement of speech competences. It requires the development of a didactic system and a technological model for the development of methodical competence in the teaching of the mother tongue in general education schools and the improvement of the linguo-didactic and linguo-methodical conditions for their implementation.

Key words: teaching, linguo-methodology, speech competence, development problems, general education schools, cross-section of classes, educational process, grammatical analysis, system.

Kirish. Jahon ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari ta’lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. AQSH, Kanada, Angliya, Buyuk Britaniya, Kolumbiya, Rossiya, Xitoy ta’lim muassasalarida nutq madaniyatini tarkib toptirishning nazariy asoslari, nutqiy kompetensiyani shakllantirish, til o‘rganishga kommunikativ yondashuv, nutqiy kompetensiyalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida rivojlantirish bo‘yicha yirik loyihalarni tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jahonda ta’lim oluvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bog‘lanishli nutqini o‘sirish, til sofligini saqlash, so‘zlash va yozishda badiiy tasvir vositalarini qo‘llash, nutqning ifodalilagini oshirish, turli xarakterdagi matnlarni yarata olish kompetentligini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, muloqot jarayonida aniqlik va mantiqiy izchillikka amal qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradigan ta’limning zamonaviy strategiyalarini qo‘llash, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, mustaqil fikrlash, bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini tiklashga qaratilgan ezgu g‘oya atrofida jipslashadigan Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini kamolga etkazishdek strategik vazifalar ta’lim tizimini rivojlantirishga uzviy bog‘lanmoqda. Bu jihatdan asrlar davomida bir makonda, yagona jamiyatda yashayotgan qoraqalpoq xalqlarining til mushtarakligi, bu xalqlarning istiqomat qilayotgan makondi nazarda tutib qoraqalpoq tilini o‘qitishni barcha ta’lim bosqichlarida rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, umumta’lim o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalariga, qo‘yilayotgan metodik, lingvodidaktik, lingvopedagogik talablari ham yangilanmoqda. Umumta’lim mакtablarning ona tili darslarida mantiqiy va kreatif fikrlaydigan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda ravon ifodalay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan barkamol shaxsni kamol toptirish, qoraqalpoq tili ta’limi mazmunining bosh maqsadi sifatida belgilangani, 6-7-sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini didaktik rivojlantirish metodikasini rivojlantirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Mantiqiy fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida qoraqalpoq o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 22 oktyabrdagi PF-5850-

son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari hamda hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 29–apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030–yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712–son va 2020–yil 27–fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish shora–tadbirlari to‘g‘risida”gi RQ–4623–son Qarorlari, 2020–yil 6–iyuldagagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida bosqichma–bosqich amaliyatga joriy etish shora–tadbirlari to‘g‘risida” 422–sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 60–sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 11–maydagi “2022–2026–yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–134–son Farmoni va qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili ta’lim mazmunini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. O‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirish metodikasiga oid masalalarni N.Alavutdinova, M.Mirmaksudova, U.Masharipova, K.Mavlonova, N.Sattorova, Sh.Sariev, Sh.Yusupova, T.Yusupova, N.Qosimova, M.Hamdamova, G‘.Hamrayevlar; o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘sirish, nutqiy malakalarini rivojlantirish muammolari ona tili va o‘zbek tillari misolida N.Dadajanova, R.Yo‘ldoshev, M.Karaxodjaeva, G.Muhamedjanova, A.Nisanbaeva, M.Rixsieva, Z.Salisheva, N.Umarova, Sh.Yuldashevalar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, G.H.Hamrayev, M.E.Axmedova hamda Sh. J.Yusupov kabi tilshunos metodik olimlar o‘z tadqiqotlarida tili ta’limi jarayonida oquvchilarning nutqi ustida ishslash, o‘quv topshiriqlar tuzish metodikasi asosida o‘qitishni targ‘ib qilgan. A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavuddinova, V.Karimjonova., M.E.Axmedova kabi tilshunos olimlar esa ona tili o‘qish asosida o‘quv topshiriqlarini ishslash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. T.Yusupova gapning bosh bo‘laklarini o‘qish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ona tili ta’lim mazmunida metodik va nazariy ta’limi bo‘yicha tadqiqotchi olimlar H.Ne’matov, A.G‘ulomov, M.Qodirov A.Nurmonov, A.Sobirov, B.Mengliev, B.To‘xliev, Yusupova Sh, Ziyodova T, Oxunjonova O, D.Jumashev kabi tilshunos olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. A.Hamrayev ona tili ta’lim mazmunida ta’lim oluvchining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilish asosida, ijodiy faoliyatni loyihalashtirishda ona tili ta’limida uzviylik, uzlusizlik, onglilik, o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikni ta’minlash tamoyillari asosida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini tizimli

tarzda rivojlantirish ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Bu borada metodist olimlar 6-sinflarning yangi tahrirdagi darsliklari ishini alohida ta’kidlash lozim.

Tahlil va natijalar. Olimlar tomonidan ona tili o‘qitishga oid yangi metodikalarni tatbiq etishi, ona tili ta’lim mazmunining bugungi innovatsion yondashuvlarga mos ravishda eng murakkab bo‘lib turgan matn ustida ishlash, uni o‘qiy olish, tushuna olish va eng muhim, matn yarata olish ko‘nikmalarini integratsiya qilgan holda lingvovidaktik rivojlantirish texnologiyasi asosida ishlab chiqilganligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir izlanishlar 7-sinf ona tili darsligida berilgan matnlardagi asosiy fikrlarni aniqlash, matnni o‘qish va qayta hikoya qilish, darslikni tahlilga tortilganda metodist-pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, uning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammolari ham o‘rganilganligi aniqlandi. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish (predmet belgisini bildirgan so‘zlar misolida) uzviylik va uzlusizligini ta’minlash borasida pedagogik-metodik yondashuv, mustaqil ta’lim topshiriqlarni ham uzlusiz ta’lim tizimi uchun uzviylik tamoyili asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini tavsifladi. N.Mahmudov muallifligida yaratilgan darsliklarda umumiyl o‘rta ta’lim tizimida birinchi marta lingvovidaktik yondashuvlardan foydalanishni kuzatishimiz mumkin. “Ona tili” darsliklarida, asosan, mashqlardan foydalanib kelingan. O‘quv materiallarini ona tili va adabiy ta’lim jarayonida o‘rganishning didaktik-metodik yondashuviga xos tarzda tilning ta’lim mazmunida o‘qitish metodikasiga munosib darajada hissa qo‘sghan metodist-olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar muayyan darajada e’tibor qaratilgani kuzatiladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish metodikasiga oid nutqiy kompetensiyalarini lingvovidaktik rivojlantirish mavzusiga doir tadqiqotlar MDH olimlari L.V.Abakumova, A.F.Boysova, V.K.Buryak, A.N.Vasileva, L.S.Vigotskiy, V.V.Gerbova, A.S.Egorova, I.A.Zimnyaya, T.A.Ladijenskaya, B.Oskarson, G.N.Pristupa, T.G.Ramzayeva, S.P.Redozubov, N.F.Titova, A.V.Xutorskiy, T.I.Shamova, S.Shoyanalar tomonidan olib borilgan. Respublikamizda keyingi yillarda qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi bo‘yicha N.Bekniyazova, G.Jumasheva, A.Najimova, A.Naurizbayeva, D.Seytkasimov, A.Yembergenova, Q.Yusupov, G.R. Bekimbetova, Yuldashev Sh.Sh.lar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlari G.Ahrorova, M.Ernazarova, H.Mirzohidova, G.Muhammadjonova, R.X.Niyozmetova, M.Rixsieva, F.Umarova, Q.Holiqberdiyev, N.Z.Umarova, Sh.Yuldasheva, R.A.Yuldashevalarning tilshunoslik sohasiga kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy qilish, ta’lim oluvchining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish, uning faolligini va lingvovidaktik yondashjish kompetensiyasini tarbiyalash muammolari bo‘yichalarning ishlarida o

‘
r
g
a
n
i
1
~

asosida amaliyotga pedagogik tatbiq etishni taklif etadi. Xorij olimlari tomonidan ta’lim tizimida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirish masalalarining tadqiqi Gail Ferguson, D.Nunan, J.Goldshteyn, Odima Leo Ekapten, Katya Sylvalarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Jahon pedagogikasi lingvpdidaktikasida nutqiy kompetensiyalarining metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug‘ullangan. Shuni ta’kidlash joizki, G‘arb pedagogikasining lingvodidaktik jarayoni amaliylikka asosiy e’tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g‘oyalar Amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Xorij olimlari tomonidan ta’lim tizimida o‘qituvchilarining ona tili metodikasini nutqiy kompetensiyalarini lingvopedagogik rivojlantirish masalalarining tadqiqi Gail Ferguson, D.Nunan, J.Goldshteyn, Odima Leo Ekapten, Katya Sylvalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. utqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirishga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, umumta’lim maktablarning ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning pedagogik imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish asosida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish kommunikativ, integrativ, kreativ nutqiy bilim va ko‘nikmalarни hosil qilish, bayon etish uslublari imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida og‘zaki va yozma nutqining o‘sish ko‘rsatkichi aniqlashtirish hamda umumta’lim maktablarning 6-7-sinflari ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirishda uzlusizlikni ta’minalashning daraja ko‘rsatkichlarini metodik hamda ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarga ta’sir qiluvchi pedagogik vositalarni rivojlantirish tizimli, faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan til o‘rganishga kommunikativ yondashuvlar mazmuni samaradorligini ta’minalashga qaratilgan nutqiy-lingvodidaktik, ijodiy-kommunikativ xususiyatlarini tavsiflash asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish modelini yaratish, og‘zaki va yozma nutqni korreksiyalashga qaratilgan nostandard, integrativ xarakterdagи mashq va topshiriqlar erkin muloqot qilishiga xizmat qiluvchi matnlarni mustaqil tinglab tushunish o‘quv motivlarini qaror toptirish va didaktik tamoyillar, mashq va topshiriqlar, innovatsion metodlar asosida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish hamda 6-7 sinflarda o‘quvchilarning o‘qish, so‘zlash va yozish ko‘nikmalar og‘zaki va yozma nutqning kommunikativ xususiyatlar hamda mashq va topshiriqlarni, muammolarni, vaziyatlarni samarali echimlarining sifatlarini mutanosib tarzda rivojlantirilish asosida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligini baholash, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Xulosa. Umumta’lim maktablarning ona tili fanini ta’limini o‘qitishda nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish o‘quv ehtiyojini kuchaytirmoqda. Ta’kidlash joizki, ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ona tili o‘qitishning konseptual masalalariga bag‘ishlangan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq umumta’lim maktablarning ona tili 6-7 sinflarida nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirishda ta’lim mazmunida ona tilini o‘qitish metodikasi, jamiyat talablariga moslashayotgan ta’lim va

zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra rivojlantirish yuzasidan ilmiy tahlillar etarli emas. Shunga ko‘ra umumta’lim maktablarning ona tili 6-7 sinflarida nutqiy kompetensiyalarni lingvometodik rivojlantirishda lingvovidaktik vazifalarni samarali yo‘lga qo‘yishni ilmiy tahlil qilish, ta’lim mazmunini transdissiplinarlik asosida optimallashtirishga qaratilgan zamonaviy nutqiy ta’lim konsepsiyasini rivojlantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T: 1997. 20-29 b.
2. Axmedova M.E. //“Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari”// Monografiya //“Tibbiyat nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 136 bet.
3. Axmedova M.E. //“Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi” Metodik qo‘llanma //“Tibbiyat nashriyoti matbaa uyi” Toshkent-2022, 100 bet.
4. Axmedova M.E. //“PEDAGOGIKA” dasrlik.” Tibbiyat nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 212 bet.
5. Axmedova M.E. Talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari // O‘zbekiston til va madaniyat. Metodika jurnali.T. – Toshkent, 2022. - №1(4). - B. 70-81.
6. Axmedova M.E. Kredit tizimida mustaqil topshiriqlar // TIL VA ADABIYOT TA’LIMI jurnali. -Toshkent, 2022. №6. - B 18-20. (13.00.00; №8).
7. Akhmedova M.E. Foreign experience in the transition to a credit-module system // Principles of development of linguistic-speech competence of students in independent education // Current Research Journal of Philological Sciences (2767-3758). №3 (01). - R. 46–57 (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 6,925
8. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Xindiston, 2022. – P. 165- 172. Vol. 12, Issue 01. (13.00.00; №20). (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,037